

jadid
adabiyoti
namoyandalari

IS'HOQXON IBRAT

Bolalarni eski maktablar ila
jamoalarg'a taqsim qilib, kelish-
ketish, kaltak va qamchi mas'alalarin
isloh qilmoq-da, albatta, lozimdir.
Lekin o'qulajak kitoblar – mazkur
eski kitoblar, o'qulajak domlalari-da
– eski domlalari, maktablari-da –
eski hasharot uyalari bo'lduqinda
bu mas'alalar ming marotabalar
isloh etilsa-da, bekor, behudadur.

*yurt qayzi usi hajida
bekaho asarlar*

821.512

d-14

jadid
adabiyoti
namoyandalari

IS'HOQXON IBRAT

16+



UO'K: 821.512.133-31

KBK: 84-44(50'zb)

I -14

Ibrat, Is'hoqxon

G'azallar, ilmiy va ma'rifiy maqolalar, tarixiy asarlar [Matn]. Is'hoqxon Ibrat/ Nashrga tayyorlovcilar: Ulug'bek Dolimov, Nurboy Jabborov. – Toshkent: «Zabarjad Media», 2022. – 208 b.

ISBN 978-9943-7070-5-4

Vatanining mustabidlar zulmidan ozod bo'lishini, millati farzandlarini sharafga to'lganlar qatorida ko'rishni orzulagan xalqimizning qalbi uyg'oq farzandlari – «jadid adabiyoti namoyandalari» bugun yana o'z o'quvchilari bilan yuzlashmoqda.

Xalq ma'naviyatini boyitish yo'lida olib borilgan kurashlar, milliy matbuot, adabiyot va teatrning odamlar tafakkurini o'stirishdagi ahamiyati haqida asarlarida kuyunib yozgan, bu borada fidoyilik ko'rsatgan, alaloqibat qatag'onga uchraganlar haqida so'z borarkan, Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'lpion, Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar qori Abdurashidxonov, Usmon Nosir, Is'hoqxon Ibrat siymolari ko'z oldimizda gavdalanadi. Ular o'z asarlarida ko'targan muammolar hamon bizning qarshimizda bo'y ko'rsatib turibdi. Biz hamon «millatni uyg'otish uyg'onganlarning vazifasi» degan chorlovga munosib javob qaytarolganimiz yo'q.

«Jadid adabiyoti namoyandalari» ruknida tayyorlangan kitoblarimizni o'qir ekan, kitobxon o'zini shu vatanning ongli fuqarosi, vatani va millati taqdiri uchun mas'ul inson sifatida namoyon qilishga o'zida jur'at topadi.

So'zboshi muallifi va mas'ul muharrir:

Nurboy Jabborov,
filologiya fanlari doktori, professor

Nashrga tayyorlovcilar:

Ulug'bek Dolimov,
Nurboy Jabborov

«Jadid adabiyoti namoyandalari» loyihasini nashrga tayyorlashda maslahat-lari uchun «Qatag'on qurbanlari xotirasi» muzeyi katta ilmiy xodimi Bahrom Irzayevga o'z minnattorchiligidizni bildiramiz.

ISBN 978-9943-7070-5-4

© Is'hoqxon Ibrat, «G'azallar, ilmiy va ma'rifiy maqolalar, tarixiy asarlar». «Zabarjad Media», 2022-yil.



IS'HOQXON IBRAT ZAKOSI

Millatning millatligini belgilovchi bosh mezon uning tili va adabiyoti ekani ayon. Zero, til millatning mavjudlik sharti bo'lsa, badiiy adabiyotda uning boshqa hech bir xalqqa o'xshamaydigan fitrati, siyrati, ruhiyati aks etadi. Necha ming yillar davomida shakllangan yashash tarzi, hayotining mazmuniga aylangan fazilatlari tajassum topadi. Tarix shohid: tilidan, adabiyotidan ayrilgan millat o'zligidan ham mahrum bo'ladi. Tanazzulga yuz tutadi, millat sifatidagi qiyofasini boy beradi. Zamoning bugungi shitobi, dunyoni tobora keng qamrov bilan tasarrufiga olayotgan globallashuv shiddati, qadriyatlarni bamisol och ajdarhodek o'z komiga tortayotgan ommaviy madaniyat taddidi sharoitida o'zligini asrab qola bilish kamdan kam millatga nasib etayotgani sababi ham shunda. Buning uchun millatning tomiri adabiyot atalgan asl sarchashmadan suv ichishi, ma'naviyati adabiyot deb nomlangan o'q ildizidan uzilmagan bo'lishi zarur. E'tirof etish kerak, muayyan millatning darajasi uning adabiy-estetik tafakkuri miqyosidan balandga ko'tarila olmaydi. O'zbekning eng katta baxti – buyuk mutafakkir shoir-u adiblari adadining ko'pligidir. Xalqimizning toleyi baland ekani – benazir ijodkorlarni hech bir xalqdan qarz olishga ehtiyoji yo'qligidir.

Is'hoqxon to'ra Ibrat milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyotining ana shunday benazir siymolaridandir.

Biz mamlakatimiz tarixining yangi davriga qadam qo'ydik. Adabiyotga, ma'naviyatga bo'lgan e'tibor bugungi kunda har qa-

chongidan ham yuksak darajaga ko‘tarilayotganiga guvohmiz. Birgina Is’hoqxon Ibrat adabiy-ilmiy merosini o‘rganishga ko‘rsatilgan e’tibor ham buning yaqqol dalilidir. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi va taklifi bilan Namangan shahrida vodiyda yagona bo‘lgan «Ibrat» majmuasi bunyod etilgani ham buni tasdiqlaydi. Majmua xiyobon, muzey, xorijiy tillarni o‘rganish maktabi kabi ma’rifiy muassasalarni o‘z ichiga olgani ko‘p tillarni bilgan, jahoning aksar xalqlari yozuvidan xabardor bo‘lgan adib ruhiga, ayniqsa, har jihatdan muvofiq. Davlatimiz rahbari buyuk adibning Ibrat taxallusini tanlashi bejiz bo‘Imagani, bu ulug‘ siyamo bugungi kunda ham barchamizga har jihatdan ibrat bo‘la olishini alohida ta’kidlagani zamirida teran mazmun mujassam.

Savol tug‘iladi: ulug‘ mutafakkir merosiga bu qadar katta e’tibor qaratilishi sababi nimada? Biz Is’hoqxon Ibrat merosining qaysi jihatlarini chuqur o‘rganishimiz, o‘sib kelayotgan yosh avlod qalb-u shuuriga qay bir fikrlarini teran singdirishimiz kerak? Bu benazir ijodkor siyratidagi, asarlaridagi qaysi fazilatlar bugungi zamonamiz uchun ham qadrli va aziz?

Birinchidan, Is’hoqxon to‘ra Ibrat shoir va olim, noshir va pedagog, din arbobi va islohotchi sifatida butun ilm-u zakosini, bor kuch va salohiyatini Vatan va millat taraqqiysiga munosib xizmat qilish yo‘liga safarbar etdi. Shu bois uning boy adabiy-ilmiy merosi nainki mamlakatimizda, hatto uzoq va yaqin xorijda ham keng o‘rganilmoqda. Shoir she’rlarining salmoqli so‘zboshi bilan Turkiyada chop etilgani, «Mezon uz-zamon» asarining yapon olimlari bilan hamkorlikda nashr qilingani ushbu fikrni quvvatlaydi.

Ikkinchidan, Is’hoqxon to‘ra Ibratning iste’dodi qamrovi kengligi, ilm talab qilishdagi ayricha shijoati zamonamiz yoshlari uchun chin ma’noda ibrat namunasi bo‘la oladi. Uning zamondoshi Ibrohim Davronning mana bu so‘zлari ham ushbu fikr dalilidir: «Is’hoqxon to‘ra ulumi diniya va fanniya va adabiyada ustozи komilligi bilan butun Farg‘ona va digar jihat Osiyoyi vus-

toda inkor o'lunmas darajada bir mavqeyi mumtoza tutmushdur. Is'hoqxon to'ra ulumi diniyada mudarrisdur, fununi dunyaviyda biloshubha arxitektor, texnik va mexanik va fiziqiya ilminda tilifonist, tilig'rofist va ximik desak yana ozdur, chunki bu ilmlarni bilur. Is'hoqxon to'ra olim va fozil bir zoti oliv bo'lub, bu turfa fazoili insoniyaga molik... Ba'zi ixtiroti ham bordur».

Darhaqiqat, Is'hoqxon to'ra millatga manfaati yetishi mumkin bo'lgan barcha ilmlarni puxta egalladi, ushbu sohalar bilan muntazam shug'ullandi. Ma'rifikatni targ'ib etuvchi she'rlar ijod qildi, zamonasining o'tkir muammolariga doir publisistik maqolalari bilan matbuotda faol qatnashdi. Tarixiy («Tarixi Farg'ona», «Tarixi madaniyat»), ilmiy («Jome' ul-xutut», «Lug'ati sittati alsina») asarlar yozdi. «Usuli savtiya» maktablari tashkil etib, o'qitish sohasida katta samaralarga erishdi. Litografik mashinani Orenburgdan Qo'qongacha poyezdda, Qo'qondan To'raqo'rg'ongacha tuyada olib kelib, «Matbaayi Is'hoqiya»ni tashkil etdi. Matbaa emblemasida nur taratayotgan quyosh tasviri o'rtafiga «ilm» so'zi naqshlangani ilm-u irfon tarqatish buyuk ma'rifikatparvar faoliyatining bosh mezoni bo'lganidan dalolat beradi.

Is'hoqxon to'raning bugungi yoshlar ibrat olishi zarur bo'lgan fazilatlaridan yana biri ilmg'a so'ngsiz rag'bat, uni egallah yo'li-dagi chinakam g'ayrati va shijoatidir. «Jome' ul-xutut» asaridagi «Har bir zavvor¹ va ahli fazl kishini ko'rsam, kayfiyat va ta'limot maollarin andin so'radim», degan so'zlari uning bir inson umri yetishi mahol bo'lgan ulkan ishlarni amalga oshirishni bejiz emasligidan darak beradi. Ilm olish yo'lida u hech bir mehnat-u mashaqqatdan chekinmagan, oldiga ulug' maqsadlar qo'ygan, ularni amalga oshirishga muttasil intilgan. Bu esa, o'z navbatida, yuksak natijalarga olib kelgan.

Uchinchidan, bugun biz chet tillarni o'rganish zarurati haqidagi ko'p gapiramiz. Ko'p til biladiganlarga havas bilan qaraymiz, tahsin aytamiz. Bu borada Is'hoqxon to'ra Ibrat darajasiga erish-

¹ Zavvor – safar qiluvchi, ajnabiy.

moq har kimga ham nasib etmasligini esa ko‘p-da o‘ylab o‘tir-maymiz. Ibrohim Davron yuqorida ta’kidlangan maqolasida bu ulug‘ mutafakkirning turk, fors, hind, rus tillarini bilgani haqida yozadi. Hindistonda ekan, Ibrat ingliz tilini ham o‘rganadi. Mutafakkir til bilish safar ahli uchun, ayniqsa ahamiyatli ekaniga alohida urg‘u beradi. «Sayohat etdugum vaqtlarida Afg‘oniston, Hindiston va Forsiston shaharlari sayohatida... bir lison safar ahlina yuz oltun barobarinda ishladi», degan so‘zlari buni tasdiqlaydi.

Zamondoshlarining e’tiroficha, Is’hoqxon to‘ra Ibrat o‘zi qaysi bir fazilatga erishgan bo‘lsa, ayni fazilatlarni boshqa odamlarda ham mukammal suratda ko‘rmoq istagan. Ana shunday xayrli istak «Lug‘ati sittati alsina» («Olti tilli lug‘at») asarining yaratilishiga sabab bo‘lgan. Nainki o‘tgan XX asr, hatto bugungi XXI yuzyillikda ham uch-to‘rt tilli lug‘atlar tuzilgani ma’lum, biroq olti tilli lug‘at yaratilgan emas. «Lug‘ati sittati alsina» – jahon lug‘atshunosligi tarixidagi noyob hodisa. Mazkur lug‘at o‘zbek, arab, fors, hind, turk va rus tillari leksikasi asosida tuzilgan. Lug‘atni yaratar ekan, muallif mazkur tillardagi o‘sha zamon uchun eng faol so‘zlarni tanlagan. Natijada bu lug‘at millat yoshlарining mazkur olti tilda og‘zaki muloqot uchun eng zarur so‘zlarni o‘rganishlariga keng imkoniyat yaratgan. O‘zbek leksikografiyasining bugungi kundagi rivoji uchun bu tajribadan ijodiy foydalanish katta samara bergen bo‘lar edi.

To‘rtinchidan, muallif tarixni o‘rganish, undan saboq olish, millatning taraqqiyoti yo‘lida foydalanish nechog‘lik muhim ekanini nainki chuqur angladi, balki boshqalarga anglatishda ham jidd-u jahd ko‘rsatdi. O‘zidan avvalgi tarix kitoblarida faqat xonlarning urushlari vasf etilganini ta’kidlagan Ibrat ular dan qanoat hosil qilmaydi. Mashhur «Tarixi Farg‘ona»ning yoziishi sabablarini izohlar ekan: «...men bu tariximda mubolag‘aga oshurub maqtab va aqlning kosasisig‘a sig‘maydurgan so‘zlarni olmay, ba‘zi xurofiy so‘zlarni yozmay, to‘g‘ri va aql kosasi-

ga sig‘adurgan so‘zlarni oldim va ajnabiy tarixlardan ko‘proq yozdim», deya ta‘kidlashi sababi shunda.

«Tarixi Farg‘ona»da muarrixning milliy tildagi qo‘lyozmalar bilan bir qatorda V.V. Radlov, V.V. Bartold va H. Vamberi asarlari dan foydalangani tarixiy asarlar yozishda boshqa xalqlar olimlarining uslublari va yondashuv tamoyillarini ham o‘zlashtirgandan darak beradi. Natijada Ibrat tarix voqeligining haqqoniy tasviri orqali millatning bir necha asrlik tanazzuli sabablarini ilmiy asosda yoritib berdi. Bundan qanday xulosalar chiqarish zarurligiga alohida e’tibor qaratdi.

Is’hoqxon Ibrat geograf olim sifatida «Tarixi Farg‘ona»da Farg‘ona vodiysi, undagi shahar va qishloqlarning mufassal geografik tavsifnomasini berdi. Vodiyni o‘rab turgan qo‘shti davlatlar, tog‘lar, o‘lkadan oqib o‘tadigan daryolar, iqlimi, havosi, yerlari, nabotot va hayvonot dunyosi, aholisining etnik qatlami, hunarmandchiliklari, ekinlari, savdo-sotiq ishlari, yerosti qazilma boyliklari haqidagi eng muhim ma’lumotlarni yoritdi. Hatto joy nomlarining kelib chiqishi masalasiga ham diqqat qaratdi.

Beshinchidan, yozuvlar tarixi bo‘yicha nodir mutaxassis sifatida olib borgan izlanishlari Ibratning beqiyos ilmiy-ijodiy salohiyatiga dalil bo‘la oladi. Bu jihatdan, uning «Jome’ ul-xutut» asari alohida ahamiyatga ega. Asarda qadimgi piktografik bitiklardan ibroniy, suryoniy yozuvlarigacha, sanskrit, qadimgi finikiy yozuvlaridan yunon, lotin yozuvlarigacha, hind, arman, gruzin yozuvlaridan arab, uyg‘ur yozuvlarigacha – dunyo xalqlarining jami 41 xil yozuv tizimi haqida ma’lumot berilgan. O’sha davrda Turkistonda amalda bo‘lgan arab xatining suls, tavqi’, rayhoniy, zulf, humoyun, turra kabi shakkllari to‘g‘risida, husni-xat san’ati xususida fikrlar bildirilgan. Muallif arab xati haqida so‘z yuritib, dastlab ko‘fiy va nasx yozuvlari joriy bo‘lib, ulardan suls xati yaratilganini, sulsdan ta’liq, bu ikkisidan nasta’liq xati yuzaga kelganini aniqlaydi. Nasta’liq 900-hijriyda eronlik Xo‘ja Mir Ali Tabriziy tomonidan ixtiro qilingani, bu xat Arabistonda

joriy bo'lmagani, undan asosan Hindiston, Turkiston va Koshg'ar taraflarda istifoda etilgani haqida yozadi.

Musulmoncha xatning o'n yetti turida qalam yurgizgan (*Ibrahim Davron ta'rifi* – N.J.), dunyo xalqlari yozuvi tarixini o'rganib, «Jomi' ul-xutut»dek noyob asarni yaratgan allomaning bu boradagi merosini yanada chuqrroq va mufassalroq o'rganish gal dagi vazifalardandir.

Oltinchidan, ulug' ma'rifikatparvar nazari tiyrak, dunyoqarashi keng bir ziyoli o'laroq zamona ning jon tomirini ushlab, millatning tanazzul dardiga tashxis qo'ya bildi. Bu dardni muolaja etmoq uchun qalamini yurak qoniga botirib, «Mezon uz-zamon» asarini yaratdi. Zamondoshlarimiz millatning dardlariga darmo bo'lmogni Is'hoqxon Ibrat singari ma'rifikatparvarlardan o'rganmog'i zarur.

«Mezon uz-zamon» asari adib ijodiy merosida alohida o'rincutadi. Asar nomiyoq e'tiborni tortadi – «Zamon tarozusi». Bu asarida olim zamona evrilibshlari va ularga millatdoshlarining munosabati masalasiga diqqat qaratadi. O'z ta'biri bilan aytganda, bu mezon ila o'z asriga baho beradi. Chunki «avvalgi zamon va keyingi zamonlarni(ng) bo'lak tarozusi bor».

Muallif bob o'mniga «mezon» atamasini qo'llaydi. Buning zamirida voqelikni idrok tarozisida tortish, unga munosib baho berish maqsadi mujassam ekanini sezish mumkin. Har bir mezonda muayyan masalalar tahlil etilishi ham bu fikrni tasdiqlaydi. Adib juz'iy so'zlar ustida o'rinsiz munozara qilib yurgan ulamo va fu zaloni Vatan va millat uchun kuyinmoqqa chaqiradi. Uning fikricha, «ittifoq va ittihod zarurligi hech kimni(ng) andishasida... Xudo amrinda ulamolardin amri ma'ruf, ag'niyodin ehson, binoyi xayr-u imdad, fuqaro va umum un-nosdin harakati kasbi ilm» lozim. Taassufki, muallif fikricha, bizda bunday emas: «Ulamo va fuzalo va avom hama nafs xizmatidin bo'shamay, dunyo qilmoq, imorat, hasham, manfaati nafsiyalarin mubtalosi». Aslida, adib ta'bıricha, ziyorilar ummat va millatga xizmat qilmoqlari zarur edi.

Ikkinchchi mezon millatni turli firqalarga ajralishdan qaytarish, ittifoq va ittihodga chaqirish mavzuyiga bag‘ishlangan. Bu mezonda adib odamlarning ittifoq bo‘lib yashashlari zarurati haqidagi oyat va hadislardan iqtiboslar keltiradi, ularni tafsir qiladi, sharhlaydi. Zamon voqealari bilan bog‘lagan holda o‘z munosabatini bildiradi.

Uchinchchi mezon sudxo‘rlik, tijoratda xiyonat masalalari muolajasiga bag‘ishlangan. Bu illatlar asarda millat tanazzu lining asosiy omillari sifatida talqin etilgan. «...paxta tijoratiga o‘rgangan kishilarda shariati islomiyaga muxolif uch katta gunoh muayyandur... – deb yozadi adib. – Birinchisi, tarozuda kam olmoq. Ikkinchisi, xiyonat. Uchinchisi, paxta berolmagan kishiga summasiga 55 tiyindan shtrof hisob qiladurlar. Ulamolar bo‘lsa, bu xil ishlar xususida amri bil-ma’rufdan hifz qilib, dam urmaslar. Mashoyixlar bo‘lsa, o‘z maishati joh va hashamlariga ovvora bo‘lub, jam‘i mol-u mulkka banddurlar».

To‘rtinchi mezonda ilm, badaviyat va tafakkur haqida, avlod tarbiyasi va usuli savtiya maktablarining millat hayotidagi ahamiyati to‘g‘risida fikr yuritilgan.

Beshinchchi mezonda xalqimizning avvalgi harakatlari va yangi zamondagi ishlari xususida bahs qilingan. «Asrimiz ilm-u hunar, harakat asridur, – deb yozadi adib, – turmoq asri emas. G‘ofil tursa, g‘aflat uyqusidan turguncha, bozori olam o‘tub ketadur. O‘rganmoq darkor. E’tibor qilinglar, ey oqillar!»

Oltinchi mezon bid‘at va ortiqcha sarf-xarajatlarga ruju qo‘yish, fiksizlik illatlarining muolajasi xususida. Yettinchi va sakkizinchchi mezonlar libos borasidagi munozaralar haqida, odamga emas, libosga ixlos qo‘yishning, dunyoparastlikning salbiy oqibatlari to‘g‘risida.

To‘qqizinchchi mezonda o‘tmish va zamon voqealari muqoyasa qilinadi. Muhim xulosalar chiqariladi.

Asar matni ustidagi kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, uning oxiri yo‘q, tugallanmagan. Lekin shu holda ham «Mezon uz-zamon»

Is'hoqxon Ibrat asarlari ichida o'ziga xos o'rin tutishini anglash mumkin.

Yettinchidan, Ibrat yashagan davrda millatni inqiroz girdobidan olib chiqish, dunyoning mutaraqqiy xalqlari darajasiga yuksaltirishdek og'ir va murakkab vazifa kun tartibida turar edi. Buning uchun zamonaviy bilimga ega, fikri ochiq, mas'uliyatni zimmasiga ola biladigan yangi avlodni yetishtirmoq zarur edi. Maktab-maorif tizimini tubdan isloh etish orqaligina bunga erishmoq mumkin edi. Is'hoqxon Ibrat birinchilardan bo'lib katta shijoat bilan yangi usul maktablari tashkil etish ishiga kirishi. O'qitish tizimiga «usuli savtiyayi tadrijiya» metodini olib kirdi. O'z mактабини parta, stol-stul, yangi kitoblar, darsliklar, daftar, qora taxta (doska), kurreyi arz (globus) singari zamonaviy o'quv ashyolari bilan ta'minladi. Milliy ta'lim tarixida yangilik hisoblangan haftalik dars jadvalini joriy qildi.

Professor Ulug'bek Dolimov e'tiroficha, Is'hoqxon Ibrat maktabidagi darslar «...ko'p hollarda «Is'hoqiya bog'i»da maxsus harakatli o'yinlar tarzida o'tkazilgan. 1912-yildan e'tiboran xuddi shu maktabda alohida qizlar guruhini tashkil qilgan va bu guruhga Husayn Makayevning rafiqasi Fotiha Makayevani o'qituvchi etib tayinlagan. Is'hoqxon Ibrat zamonasining ulug' pedagogi sifatida bolalarni maktabdan bezdiruvchi, ularda muallimga nisbatan hurmat emas, nafrat uyg'otuvchi tan jazosiga birinchilar dan bo'lib qarshi chiqdi, u faqat maktabda emas, oilada ham bolalarni kaltaklab tarbiyalash o'ta noto'g'ri usul ekanligini alohida ta'kidlaydi».

Ta'lim-tarbiya sohasida kutilgan natijaga erishmoq uchun, birinchi navbatda, millatning ong-u tafakkurini o'zgartirmoq zarur edi. Ibrat va boshqa ma'rifatparvarlarimiz o'qish-o'qitish sohasida joriy etgan yangiliklar ziyolilarning yangi avlodini yetishtirishda muhim rol o'ynadi.

Agar charxi kajraftor Vatanimiz va millatimiz foydasi tarafiga aylanganida, sho'rolar tuzumining qattol qatag'on mashi-

nasi millat ziyolilarining gullarini o‘z girdobiga tortmaganida edi, ma’rifatparvar jadidlar, shu jumladan, Is’hoqxon Ibrat orzu qilgan yuksak taraqqiyot darajasiga bundan yuz yil avval erish-mog‘imiz mumkin bo‘lardi. Taassufki, mash’um 1937-yilda butun vujudidan, ruhiyatidan ma’rifat nuri taralib turgan 75 yoshli Ibrat «qora mashina» to‘la kitoblari bilan birga olib ketildi, «millatlar turmasi»ning qurbaniga aylandi. Biroq Ibrat va ibratlarning ezgu g‘oyalarini qatl-u g‘orat qilish imkonsiz ekani ayon edi...

Tarix bergen birinchi imkoniyat samarasi o‘laroq qo‘lga kiritilgan mustaqillik Is’hoqxon to‘ra Ibrat va uning zamondoshlari ekkan ma’rifat nihollariga qayta hayot bag‘ishladi. Vatan va millat ular orzu qilgan zamonlarga yetishi bilanoq ulug‘ ma’rifatparvar ajodolarimiz xotirasi munosib qadrlana boshladi. Namanganda barpo etilgan ma’rifat majmuasi yuzlab, minglab ibratlarni tarbiyalab yetishtirishi aniq. Yana shuni qat‘iy ishonch bilan aytish mumkinki, Is’hoqxon to‘ra Ibratning benazir adabiy-ilmiy merozi bundan keyin ham ilm va zako, g‘ayrat va shijoat, ma’rifat va ziyo yo‘lidagi intilishlarida millat yoshlariqa qanot bag‘ishlaydi. Vatan va millatga muhabbat, fidoyilik va ma’rifat bobida asrlar davomida barcha-barchaga ibrat bo‘lib qolaveradi.

Is’hoqxon to‘ra Ibrat asarlari mustaqillik yillarda ko‘p marta nashr etilgan. Ushbu navbatdagi nashr ham ulug‘ ma’rifatparvar shoir va adib ijodini keng targ‘ib etuvga intilish natijasi sifatida kitobxonlarga manzur bo‘lishidan umidvormiz.

Nurboy JABBOROV,
filologiya fanlari doktori, professor

Sanga
qaydin
bo'lur
qalbi
safo
og'ushi
dunyosan

XUSH KELDINGIZ

Sarv bo‘yluq xush qadam ra’no sifat, xush keldingiz,
Yurishing tovus kibi barno sifat, xush keldingiz.

Lablaring shahd-u shakar, oq tishlaring durdonadur,
Ko‘zlarining bodomi tar Laylo sifat, xush keldingiz.

Ham kelinlik davrini sursang kerak bir necha vaqt,
Nuri diydam, tojsar, kelin oyim, xush keldingiz.

Umringiz bo‘lsun daroz ham baxtingiz bo‘lsun kushod,
Oxuni barno bilan qo‘sha qaring, xush keldingiz.

O’n to‘rt o‘g‘il, yetti qiz bersun Xudovandi jahon,
Uning, o‘sing, ey bo‘tam, kelin oyim, xush keldingiz.

Qaynotangiz davlatin sizga nasib etsun egam,
Toleying bo‘lsun baland, yonsun chiroq, xush keldingiz.

* * *

Dunyo aylab safarlar, topmadim xo'b orqadosh,
Hasrati dilni deyolmay, hech etmay sirni fosh.

Asrimiz insonlariga bo'l madi bir dardkash,
Kimni so'rsang suhbat aylar sanda bo'lsa non-u osh.

Hech vaqt teng kelurmu, husnida ham quvvati,
Ham bahorda kim qilur har yerda qari birla yosh.

Yoshlar bazm-u taashshuq¹ suhbati gul chehralar
Birla doim ijтиҳод-u² qarilar ko'zida yosh.

Bo'lsa sanda siym³-u zar, har kim qilur ulfatchiliq,
Qayda bo'lsang, suhbatingni aylagaylardi talosh.

Faqirlikda aylamaslar majlisingni orzu,
So'zlama dahr ahliga, Ibrat, solib og'zingga tosh.

* * *

Sen uchun bu dam kirmish gulistoniga jononlar,
Rashki bog'i jannatdur yuz tuman gulistonlar.

Qurug'aydi ko'z yoshim ul parilar ilkidan,
Seli ashkimni ko'rgach, chekti barcha domonlar⁴.

¹ Taashshuq – oshiqqlik, sevish.

² Ijтиҳод – sa'y-harakat, tirishish.

³ Siym – kumush, boylik, kumush tanga.

⁴ Domon – etak, o'ngir.

Ishqing ichra, ey Shirin so'zli Layli, yo'qtur men
Kezmag'on-u qazmog'on ko'h ila biyobonlar.

Rahm ayla, ushshoqing har sahar jafo uzra
Chok etarlar oh aylab subhdek giribonlar¹.

Dahr gulistonini andalibi lol o'ldi,
Gul yuzing firoqidin toki chekdi afg'onlar.

Etkamiz nechuk, yo Rab ul sitam – jafopesha,
Bizgamu jafo aylar, o'zga lutf-u ehsonlar.

Ey buti pari tal'at², chekti qaddinga oxir
Domi zulfi zunnorin³ murg'i jon-u iymonlar.

Ochilibmu nargislar sabzalar orosida,
Ikki davri mujgoning ichra chashmi fattonlar.

Vo'smalik qoshingmudur yoki qon to'kub usru,
Zang bog'lamishdurlar ikki tig'i burronlar.

Iki yuz, iki zulfi dilbaringmudur, Ibrat,
Gullar uzra yo tutmush sunbul ila rayhonlar.

¹ *Giribon* – yoqa, kiyim yoqasi.

² *Tal'at* – chehra, yuz, go'zallik.

³ *Zunnor* – xristianlar belbog'i.

KO'RGONI KELDIM SOG'INIB

Guldek yuzingni, dilbarim,
Ko'rgoni keldim sog'inib.
Sen shohi olam, men gado,
Ko'rgoni keldim sog'inib.

Kel-kel mani holim so'rab,
Ey, oshiqi holim xarob,
Bo'ldi yurak-bag'rim kabob,
Ko'rgoni keldim sog'inib.

Ishqingda dilbar zor-zor,
Yig'lab yuribman, ey nigor,
Kel ey, bukun, ko'zi xumor,
Ko'rgoni keldim sog'inib.

Sizdin bo'lak yo'qtur kishim,
O'zga bilan yo'qtur ishim,
Mastona ko'zli mahvashim,
Ko'rgoni keldim sog'inib.

Tan ichra jonim sen eding,
Xush mehribonim sen eding,
Shirin zabonim sen eding,
Ko'rgoni keldim sog'inib.

Man xasta dil hayron bo'lub,
Ishqingda sargardon bo'lub,
Parvona yanglig' o'rgulub,
Ko'rgoni keldim sog'inib.

Darding bilan darmondaman,
Topkin iloj, bemoraman,
Vasling bilan aftodaman,
Ko'rgoni keldim sog'inib.

Ey dilbari nozik badan,
Ham tishlari durri Adan,
Oy yuzlari bog'i chaman,
Ko'rgoni keldim sog'inib.

Bog'-u bahorim san mani,
Ko'zi xumorim san mani,
Shirin zabonim san mani,
Ko'rgoni keldim sog'inib.

Mandin yashirma yuzlaring,
Yodimg'a tushdi so'zlariling,
Kuydurdi, yorim, ko'zlariling,
Ko'rgoni keldim sog'inib.

Ko'yingda, dilbar, zor-zor,
Shom-u sabo, layl-u nahor,
Yo'q emdi bizda ixtiyor,
Ko'rgoni keldim sog'inib.

Ibrat quling qildi duo,
Sandin ijobatdur yano,
Doyim deyur hamd-u sano,
Ko'rgoni keldim sog'inib.

Респ ТАКН

инв.

BO'LUBDUR

Ey dahr eli, bilinglar, turfa zamon bo'lubdur,
Beandisha xaloyiq fe'li yamon bo'lubdur.

Olim bila faqirda zuhd-u amal bo'lunmay,
Yoinki amri ma'ruf go'yo nihon bo'lubdur.

Shayxlarni(ng) xonaqosi qolmay ani baqosi,
Bir-birin shikva qilmoq ul ham tamom bo'lubdur.

Madrasalar ichinda ko'b fitna birla sho'rish,
Har kunda o'n xil urush, oq salla non bo'lubdur.

Bermas zakot boylar, sandiqqa fulni joylar,
Chipta-u necha toylar, so'z amirkon bo'lubdur.

Dehqon eli, bilingiz, xirmonni kechga olg'ay,
Bir dona xayr qilmas, oxir zamon bo'lubdur.

Bopanda yo duradgor yoki barcha ustolar
Ishin bitirmas aslo, yolg'onga kon bo'lubdur.

Qassob-u qo'yfurushlar – jang-u jadal urushlar,
Bechoralar fuliga go'sht ustixon bo'lubdur.

Nonvoyda yo'qdur insof, andin o'tadur allof,
Ko'r, chaksa un xamiri qirq ikki non bo'lubdur.

Ko'b qozixonalarda ushbu zamonalarda
Ishdin zakunchilar ko'b, emdi yomon bo'lubdur.

Janjalni axtarurlar ful olmoqqa xaloyiq,
Janjal fuli alarga choy ila non bo'lubdur.

Ellikboshi deganlar uy boshidan yeganlar,
O'z mansabiga mag'rur, go'yoki xon bo'lubdur.

Har ko'chada qorovul, yo'qdur qo'lida dovul,
So'zlar chaqib bo'lusga, misli chayon bo'lubdur.

Alhol muhtasib yo'q, bir-ikki qilsa ul do'q,
Ichkuga xalq rog'ib¹, doim fiyon bo'lubdur.

Ushbu zamon onlar, topdi rivoj yamonlar,
Yo'q emdi nuktadonlar, qanday zamon bo'lubdur?

Har yerda oshkora fohish ishi-la lu'bat²,
Nosih³ muhtasiblar basta⁴ dahon bo'lubdur.

Boy ila kambag'al yo'q, yo'q zanlarini farqi,
Barcha libosi haftrang, bir nogahon bo'lubdur.

Xalq o'ldi emdi tartib, ro'molga burnin artib,
Moshina aylamasdan, kiymas chofon bo'lubdur.

Mahbubi naxshixonlar, ko'zi qaro juvonlar
Gastinsalarda yurib, sarfi ziyon bo'lubdur.

¹ Rog'ib – moyil, xohlovchi, talabgor.

² Lu'bat – o'yin, hiyla-nayrang, o'yinchchoq.

³ Nosih – nasihat qiluvchi, nasihatgo'y.

⁴ Basta – bog'liq, banda, bog'langan.

Manzuma soli tarix, bu dahri inqilobi,
Ming ikki yuz to'qson ikki bayon bo'lubdur¹.

Ibrat, bu yerda turma, bunlar bila o'turma,
Bu xalqi fe'li-huyi senga ayon bo'lubdur.

QALAYSIZLAR

Tiriklik zahmatidin ushbu kunlardan qalaysizlar?
Bu tiriklik yili bug'doy-u unlardan qalaysizlar?

Hamani qo'ymadı o'z holig'a, tashvishlar soldi,
Mushavvash aylagan bu ahli dunlardan² qalaysizlar?

Jahon hech kimga gardish³ etmadı iqbolina tavri⁴,
Zamona holi mol, qofi unlardan qalaysizlar?

Bosib xalqi jahonni, ayladi toroj o'g'rilar,
Salomat yotdingizmu, bo'yla tunlardan qalaysizlar?

Fasod-u olam etti shu kabi har yerda insonni,
Bu tarzda fitna-yu toroj bunlardan qalaysizlar?

Ki har bir kishida ming xil alomat-u qiyomatlar,
Mashaqqat vaqtini umri o'rinlardan qalaysizlar?

¹ Hijriy 1292-yil milodiy 1875-yilga to'g'ri keladi. Shoir Ibrat muslimmonlar o'ttasida bunday yaramas, fahsh ishlarning rivoj topishini o'lkanning ruslar tomonidan bosib olinishi bilan bog'laydi.

² Dun – razil, pastkash, buzuq.

³ Gardish – harakat, aylanish, yurish.

⁴ Tavr – tartib, yo'l, ravish.

HIKOYATI UCH KISHI

Sokini gul bog‘idurmiz uch kishi,
Hamdulilloh, sog‘durmiz uch kishi.

Har birimiz bir isha mashg‘ulmiz.
Yeb-ichib saryog‘durmiz uch kishi.

Biri der, maydonga suv sep, toza qil,
Biri der, nosog‘durmiz uch kishi.

Ish buyursak, birimiz qilmay qabul,
Negakim bo‘ydog‘durmiz uch kishi.

Uchimiz te‘dod¹ etay, yaxshi biling,
Ulfat-u o‘rtog‘durmiz uch kishi.

Biri Vaqqosxon, biri mulla Sharif,
Bandi bir belbog‘durmiz uch kishi.

Biri Tursundur, bizi xizmatdadur,
Tish ila tirnoqdurmiz uch kishi.

O‘rtamizda usta-yu najjorimiz²,
Zoiri ko‘b tog‘imizdur uch kishi.

Bog‘dakim asalari chaqtি bizi,
Lab shishirib dog‘durmiz uch kishi.

¹ Te‘dod – hisoblash, son, miqdor.

² Najjor – duradgor.

Bizdan odob-u usul etmang umid,
Odami qishloqidurmiz uch kishi.

Choyi nondur har kuni nonushtamiz,
Tolibi qaymoqdurermiz uch kishi.

Bor edi bir boadab mehmonimiz,
Tolibi so'ylog'idurmiz uch kishi.

Biri ovsar, bir tentak, lo'ndamiz,
Aqldin kamroqdurermiz uch kishi.

Ibrat olmay bizga har kim kulsalar,
Bul sababdin dog'durmiz uch kishi.

O'LURSAN

Bo'lma amalga muxtor, ozurda¹ jon o'lursan,
Badfikr fitnasidin dil to'la qon o'lursan.

Gar to'g'ri so'z qilursan, ul fahm egri aylar,
Anga tushuntururga dardi dahon o'lursan.

Vallot yoki qozi kori erur mashaqqat,
Ashror²lar so'zidan dardi nihon o'lursan.

Gar ushlasang shariat, pos ushlamoq mashaqqat,
Bir qo'l nizomi davlat toki omon o'lursan.

¹ Ozurda – ozor chekkan, ranjigan.

² Ashror – badkirdorlar.

Xayr ishni hech ko'rmas,¹
Ijroyi kor qilsang, o'qg'a nishon o'lursan.

Xasmin bir-birini alar etsa muqayyad²,
Ikkisi senga roje', qaydin omon o'lursan?

Adling bo'lursa aqvi, izhor aylamas hech,
Gar zarra zulm qilsang, xalqg'a ayon o'lursan.

Taklif g'ayri mavze³ aylar qiling muni deb,
Sen mas'alaga yursang, anga yomon o'lursan.

Gar hukm joriy qilsang, norozi har ikkisi,
Men sudga arza bergum, anda yomon o'lursan.

Kelg'ay birisi har dam har kimni o'g'ri aylab,
Topguncha bittasin sen dardi gumon o'lursan.

Bechoralig'din o'zga ish ixtiyor qilma,
Harchand xo'b bo'lsang, dardi zamon o'lursan.

Ko'b bo'ldi advokatlar yo omidin vakillar,
Ko'fiyadin bo'lakni bilmas, fig'on o'lursan.

Kelgay zaif xayli, sanga jadali mayli,
O'qini shast qilg'ay, san bir kamon o'lursan.

Har kasb pesha qilg'il, bo'lmas amal senga qut,
Bekasb o'tsang, Ibrat, muhtoji non o'lursan.

¹ Bu va bundan keyingi ko'p nuqta qo'yilgan o'rirlarni asl matnda o'chib ketgani sababli o'qish imkonи bo'lmadи.

² Muqayyad – taalluqli, bog'langan.

³ G'ayri mavze' – o'rinsiz.

TARIXI TRAKTUR

Bir mo'jiza zamona bo'ldi kelib traktur,
Ishlarni qildi oson emdi kelib traktur.

Avvalda qo'sh tirkash, qishlarda mol boqishlar,
Barchasidin qutuldik bizga kelib traktur.

Dehqon ho'kuz-u yo'qdur, go'yoki yuzi yo'qdur,
Barcha barobar o'ldi munda kelib traktur.

Yem birla ul xashakdin dehqonlari qutuldi,
Yer haydar ho'kuzsiz, munda kelib traktur.

Eski omoch, ho'kuzlar yerni tilib yorardi,
Emdiyi ag'darilgay, yaxshi qilur traktur.

Yerdan giyoh chiqmas, tomurlari kesilgay,
Yerni kuchi ko'paygay, gar haydasa traktur.

Bir kunda o'n desyat yer haydab qilurga tayyor,
Gar haydar ersa bir bor obod etub traktur.

Eski omochda uch jon ovora erdi birdan,
Bir kunda o'n tanob yer yorgay, bale traktur.

Ko'hna omoch-u mola odamdin erdi meros,
Emdi usuli yangi ish boshlagay traktur.

Bo'lsa edi yuz uyg'a bir o'nta o't omochdin,
Qolmas xaloyiq ishdin, yorgay edi traktur.

Sad hayfi bizda yo'qdur, yerlarni aylasang un,
Ibrat, san etma afsus, bergay sanga traktur.

* * *

Bir necha yillar ichinda shahrimiz jannat bo'lar,
Bul tariqa boshchilar qilsa tashabbuslar agar.

Xalqni targ'ib etub ishga bo'lursa ijтиҳод,
Sahal kunlarda bo'lurlar jumlayi olamga sar.

Har kishi ish ishlasa, doim ishi xursandlik,
Ishlamaslar o'z boshig'a urg'usi tig'i batar.

Sanga osmondin yog'urmu aqcha yo bug'doylar,
Qilma eldin san umid-u o'z ishing o'zing bajar.

Ibrat olsunlar hama ishchi buning mazmunidin,
Ishlasang, qandingni ol, gar dangasa bo'lsang zahar.

BO'LUBDUR

Ishqing dil-u jona jo bo'lubdur,
Jon-u dil anga fido bo'lubdur.

San aylamasang agar davosi,
Dardim mani bedavo bo'lubdur.

Ohim tutuni-la ro'zg'orim
Yaldo tuniday qaro bo'lubdur.

Tan bog'idin andalibi jonim
Ko'yingni tilab jalo¹ bo'lubdur.

Ishq ichra chu man kibi nasibi,
Yori soridin jafo bo'lubdur.

Husn ichra vafo yo'q emish, jon,
Ki san kibi bevafo bo'lubdur.

Vaslingga yeturga Ibrat asr-u
Hajr ilkig'a mutbalo bo'lubdur.

¹ *Jalo* – g'urbatda bo'lish, vatandan ayrilish.

GAZET XUSUSIDA

Gazetdur jahon ahliga bir lison,
Muayyan erur anda yaxshi-yu yomon.

Gazet ko'rmagan, bexabar xalqlar
Misli o'lgandur va yo uxlagon.

Dedi bir kishi menga: «Bid'at gazet»,
Dedim: «Qayda qoldiki, eski zamon?»

Ajib so'filar, ajib so'filar,
Gazet onlarga bid'at, nodurust.

Halol o'rniغا kechti g'iybat degan,
Takalluf tamoq rasmi odat ekon.

Bular topsa erdiki ilm-u adab,
Demas erdi bu xil so'zi bo'lмагон.

Gazet amr-u ma'ruf etar xalqg'a,
Yozar ko'b xabarлarni etmay nihon.

Xabarni(ng) yozilgani avlo turar,
Og'izdin birovdin eshitgan bilon.

Yozing ilm-u axloq-u fanni maqol,
O'qub bilsun, Ibrat olib bilmagon.

CHAMAN ICHRA

O'shal bulbul qilar afg'on sahar vaqtি chaman ichra,
Qo'nar gul deb tikan uzra sahar vaqtি chaman ichra.

Qilar bag'rini bulbul qon, tikan uzra beray deb jon,
Bo'lur gul zavqidin qurban sahar vaqtি chaman ichra.

O'shal bulbul bo'lur dog'lar, chamanni gasht etib chorlar,
Qizil gulni tilab yig'lar sahar vaqtি chaman ichra.

Chiqar bulbulni afg'oni, chaman ichra oqib qoni,
Tasadduq gul uchun joni sahar vaqtি chaman ichra.

Muhabbat birla mast erdi, ani yo'lida jon berdi,
Qizil guldin xabar so'rди sahar vaqtি chaman ichra.

Muyassar bo'lsa ul jonon, ato qilsa o'shal subhon,
Yo'lida jon qilay qurban sahar vaqtি chaman ichra.

Ibratiy, bexabar bo'lma, yana g'aflat bila o'lma,
Gunohi beedad qilma sahar vaqtি chaman ichra.

ADO QILASIZ

Ramuz, dilbari jonon, mani ado qilasiz,
Bu telbalarni yana g'amga mubtalo qilasiz.

Suchuk til bila tabassum qilib, so'rab holim,
Avvalda va'da berib, oxiri jafo qilasiz.

Libosi atlas kamzul kiyib, havo aylab,
Raqiblar oldida ko'z bila imo qilasiz.

Ko'zum qarosi kuygayki, boshqaga qarasam,
Agar gapursam, tilimni tilim-tilim qilasiz.

Agar g'azab bila borib, mozorima tebsang,
Ayog'im og'ridi deb, qabrima jafo qilasiz.

Labingni xolini o'pmoqchi bo'lub savol etsam,
Xiroji Misr-u Badaxshon debon baho qilasiz.

G'ammingda Qozi quling yig'layur hama doyim,
Qoshingni yoy etibon, kiprikni qaro qilasiz.

TARIXI CHOPXONA

Ming uch yuz-u yigirma oltida chopmaxona
Ochmoqg'a bo'ldi ruxsat va so'z berib zamona.

Maqsad bu ishdan erdi olamg'a ilm kasri.
Ham qo'ymoqg'a asarlar yodovari jahona.

Kasb-u kamoli islom bo'lmay taraqqiyatda,
Holiq'a tushmasun deb etduk buni bahona.

Bizdin keyingilar ko'b ilm-u hunar toparlar,
Hayfoki, anda biz yo'q, yo'q e'timodxona.

Olamdin ushbu ona sonsiz kishilar o'tdi,
Mingdin biri qo'yubdur olamg'a bir nishona.

Men katta boy emasdim kim aylasam binoye,
Daxlim yetishmas erdi ro'zg'ori choy-u nona.

Sad hayfkim, g'anilar sarfini bilmadilar,
Yeb-ichdilar semurub, sig'may turub chopona.

O'z asrimizda o'tdi bir necha ag'niyolar,
Qoldirmayin nishona yer ostin etti xona.

Fikr aylasa, kerakdur bu dahri bebaqoda,
O'tmisht Rasul, shahlar ko'b kelmag'ay bayona.

Gar yuzlanib baqog'a ketsang bu mamlakatdin,
Qaytib kelib bo'lurmu bu mamlakatga yana?

Bul senga katta ibrat, hushyor bo‘lki, ketdi,
Emdi senga kelurmu ketgan u ota-on?

Bu roqimi¹ jaloli² ma’vosi³ qal’ayixon,
Chopxona kotibidur, gar so’rsa har kim olon.

Ibrat taxallusimdur, ahfod⁴i Hazrati Sulton,
Shuhratda – Hoji to‘ra, ma’vosi – To‘raqo‘rg‘on.

To‘raqo‘rg‘on, 1908-yil

TABRIK NAMANGONDIN

Eshitildi «Sadoyi Farg‘ona»,
Kelmagan erdi toshbu ona.

Haq muvaffaq etib mardona,
Eshitilsun bu sami⁵ insona.

Bir jaroidi oy biza lozim,
Kelmagan erdi hech imkona.

Dastras o‘ldi numrayi avval,
O‘quduk daf’atan faxrla ona.

Endi tabriklar erur lozim,
Na uchunkim bu shug‘li mardona.

¹ *Roqim* – xat yozuvchi, kotib.

² *Jalol* – ulug‘, buyuk, viqor.

³ *Ma’vo* – boshpuna.

⁴ *Ahfod* – avlod.

⁵ *Sami’* – eshituvchi, tinglovchi.

Xalqimiz o‘z-o‘ziga ovora,
Xoh o‘z davri va yo begona.

Bizga endi bisotdur bu gazet,
Muddaoni demoqg‘a iqrона.

Husni iqbola noil etsun Haq,
Chiqsa shoyad davomi maydона.

Xidmati millat etmади hech kim,
Chiqmadi mamlakatda bir dona.

Millatimiz tili jaroiddur,
So‘zlar endi bular dalirona¹.

Millatimizi taraqqiga targ‘ib,
Aylasun so‘zni qilmay afsona.

Ismi noshirki, Obid-u Mahmud,
Chiqsa, shoyad muvaffaqiyatona.

Yo‘q bu vaqtда hech nosihlar,
Qilsa to pand har musulmona.

Anbiyonи yubordi xidmat uchun,
Solmoqda elni roh yozidона.

Fuzalo² yaxshi fikrlar yozsun,
Xohishi bo‘lsa xalqqa ehsona.

¹ *Dalirona* – dadillik bilan, jasurona.

² *Fuzalo* – fozil kishilar, olimlar.

O‘qur endi g‘azetni har yerda,
Xoh masjid-u yoki mayxona.

Ilm-u axloq ham fununi maqol
Lozim o‘ldi bu ahd-u paymona.

Qalban endi tavajjuh lozim
Shunchalik xodim musulmona.

Poydor aylasun buni nashridin,
Mutammadi bo‘lur davrona.

Ziynat uchun muborak javob
Ayladuk bu «Sadoyi Farg‘ona».

Ibrat olsun xalqimiz bundan,
Kirdi bir ruh jismi bejona.

MANZUMA

Hurmatlu «Tujjor» gazeti nashrig‘a To‘raqo‘rg‘on qozisidan ziynati gazet uchun «Tujjor»ni javob xati suls ilan sarlavha qilib yuborildi. Gazetga qo‘ymoqlari uchun va tabrikka manzuma dar¹ uchun irsol qilindi.

Olamg‘a so‘z matoyin sochmoqqa chiqtı «Tujjor»,
Tabriklar qilinsun qilmish bu xo‘b guftor.

Dahr ichra ko‘b havodis, xalq ichra muntashir²dur,
Har qaysi fikr o‘zga aqliga o‘zi muxtor.

¹ *Darj – kiritish, qayd etish.*

² *Muntashir – yoyilgan, tarqalgan, hammaga ma’lum bo‘lgan.*

Ba'zisi qasdi shuhrat, ba'zisi maxsi xizmat,
Ba'zisi afzaliyat xalq ichra aylar izhor.

Olamda bu jarida bir muxbiri huvaydo,
Lobad erur yozarg'a gar bo'lsa yaxshi axbor.

Bu yangi fikrlardin gar bo'lsa manfaatlik,
Xalqqa eshittirurga yozmoq kerak bu darkor.

Avvalgi asrlarda va'z ila amr-u ma'ruf
Har yerda aytildi, emdi jaridalar bor.

Millatga yaxshi xizmat aylang yozub, birodar,
Yozilsa safhalarga o'qur bu xalq nochor.

Bu O'rta Oziyoda ikki jarida bori,
Islom eli o'qurga «Turkiston» va «Tujjor».

Bu xalq madaniy ermas – bu qo'rquvdur gazetdan,
Madaniy agar bo'lursa kimdur hazor asfor¹.

Lozim na yanglig' o'lsa xalqqa demak nasihat,
Shar'i nizomi so'zdin gar bo'lsa, yaxshi afkor.

«Tujjor»ga «Taraqqiy» etmakka bermak imdod²,
Darkor erdi bizdin sarlavha bo'ldi tayyor.

Nozimni bilmak istar bo'lsa kishi o'qusun,
Qozii To'raqo'rg'on Ibratdur anga ash'or.

¹ Asfor – kitoblar, buyuk kitoblar.

² Imdod – yordam, madad.

Bizdin erur nishona sarlavha bu gazetga,
Tavon qilib yubordim, ziynat tobar bu «Tujjor».

*To'raqo'rg'on tumani ijroqo'miga
Is'hoqxon Ibratdin*

ARIZA

Ey rayonga rais o'rtoqlar,
Davlat uzra yuring bo'lub sog'lar.

Qurudi o'rik, olma, yong'oqlar,
Xo'jasini qo'yub bag'riga dog'lar.

Sayrashar erdi gul uzra bulbullar,
Bulbul o'rniga quzg'un-u zog'lar.

Otunadin bo'ldilar vakil suvg'a,
Xalq g'amidin bo'lmas uyg'oqlar.

Suv berish yo'lini bilmaslar ular,
Ba'zi bo'lgan mirob to'ngoklar.

Afv eting xo'jalik solig'ini,
Yo suv bering, qurumasun bog'lar.

1931-yil

ISLOHI MILLAT

Ahli Turkistonni shoyad emdi isloh aylasa,
Intishor¹

Millatimizda maorif o‘rnig‘a vahshat to‘lub,
..... shoyad emdi insho aylasa.

Bobi kanzi ilm masdud erdi yiroq necha vaqt,
Yo‘q ajab isloh miftohi² ila vo aylasa³.

Maslakin ko‘rdum taraqqiy va taoloda ekan,
Xizmati ummatni shoyad yaxshi barjo aylasa.

Haq payg‘ambarlarni qo‘ydi xizmati ummat uchun,
Shod o‘lur rohi nabiyni kimki barpo aylasa.

Millat-u davlatga xizmat qilsa bu kirdor ila,
Maslakidin ajramay xalqqa madora aylasa.

..... so‘zlarla yozib targ‘iblar, tashviqlar,
Birla bo‘lub ahliga yaxshi muroso aylasa.

Ahlimizda nafs ahvoli ishlarin,
Ko‘zlarina ko‘rsatub arzini ifsho⁴ aylasa.

Numrayi avvalni ko‘rdum o‘tuz uch hijriy ekon,
Bu xo‘b yaxshi xalqiga madoro aylasa.

¹ *Intishor* – yoyilish, tarqalish.

² *Miftoh* – kalit, ochqich.

³ *Vo aylamoq* – qutqarmoq.

⁴ *Ifsho* – ochish, oshkor qilish.

Ahli Turkiston bu kunda, shukr, beisloh emas,
Intishori ma'rifat xattida beimlo emas.

Millatimizda ma'rifat o'rnida vahshat edi,
Madaniyat ta'lim etti emdi beinsho emas.

Bobi kanzi ma'rifat bizlar uchun masdud edi,
..... yo'q erdi fath-u bobi nusratvor¹ emas.

Ko'rdum «Isloh»i jadidni chiqibdur Shoshdin,
Shukr aytdim yo'lidan xalq beparvo emas.

Maslakin ko'rdum sharardin² tajovuz etmagan,
Xalqni isloha targ'ib aylagan badxoh emas.

Gar tutub ahli sharoyi' domanin a'yonni,
Aylamay tanqid-u targ'ib aylasa bejo emas.

Xizmati millat payg'ambarlarni af'oli³ erur,
Etmasa ummatga xizmat loyiqi dargoh emas.

Millati islam huquqidur jumlaga,
Demadi Haq birni past, birini volo emas.

Zimmayi holimg'a qo'ydi amri ma'ruf amrini,
Hofiz etmas Haqni amrin olimi volo emas.

Har zamon ahlig'a bir fan rusumi o'lg'ay rivoj,
Ul zamon ahlig'a kirdor etmasa dono emas.

Qaydin o'lg'ayman zamon odam-u asr-u atiq,
Ibrat ol,ilm asridur, kimsayi volo emas.

¹ Nusrat – zafar, g'alaba, ko'mak, yordam.

² Sharar – uchqun, alanga.

³ Af'ol – fe'l-harakatlar, qiliqlar.

MUXAMMAS

TARIXI VAGON IS'HOQXON IBRATDIN

Namangan ahlig'a xo'b o'ldi, bir yaxshi zamon keldi,
Murodoti xaloyiq uzra bir jon-u jahon keldi,
Dema jon-u jahon avqot uchun bu xalqqa don keldi,
Dema don, balki bunlarga maishhat uzra non keldi,
Ajib bir foyizi arzoq¹i insoniy vagon keldi.

Namangan ahliga bormoq edi Xo'qandga ko'b mehnat,
O'tursa sart aroba uzra mehnat ustiga kulfat,
Aroba mehnatidin bormoqqa bo'lmas edi jur'at,
Bu daryo-yu aroba mehnatidin aylabon uzlat,
Ajib bir foyizi arzoqi insoniy vagon keldi.

Hama olamni kori bori oson o'ldi foyizdin,
Barobar Mag'rib-u Mashriq chu yak son o'ldi foyizdin,
Bu xalqullolara arzoqi arzon o'ldi foyizdin,
Matoye jumla ashyo keldi, bir kon o'ldi foyizdin,
Ajib bir foyizi arzoqi insoniy vagon keldi.

Tashabbus ayladi kelturmoqqa hurmatli Yessin,
Bilib erdi Namangan mavze'in bu xalq barchasin,
O'qub erkan handasa ilmini ko'bdin alifbosin,
Muboraklar desin xalqqa, ishiga ofarin desin,
Ajib bir foyizi arzoqi insoniy vagon keldi.

Namangan ila Xo'qand o'rtasi garchan yaqin yo'ldur,
Hama qum birla ochug' suv ila to'lgan yamon ko'ldur,
Yo'lovchini bosib o'ldurmoqqa bosmachiga qo'ldur,
Temiryo'l aylamoqqa lozimi lobad maxmuldur,
Ajib bir foyizi arzoqi insoniy vagon keldi.

¹ Arzoq – rizq, nasiba.

Ming uch yuz-u yigirma sakkiz erdi bu temiryo'lga,
Kelib ish boshlagan erdi qaramay o'n ila so'lga,
Xaloyiq ish boshlashib past-u baland, ko'l ila cho'lga,
BihAMDULLAH, bu ishda keldi ko'bni maqsadi qo'lga,
Ajib bir foyizi arzoqi insoniy vagon keldi.

Bo'lub bu shahrimiz navzodi bunyod o'ldi ijodiy,
Safarni zahmatidin xalqlar oldi xatti ozodiy,
Namanganni nihodiga¹ nasimi yetti obodiy,
Qilurmi hargiz emdi ul kirokash zahmatin yodi,
Ajib bir foyizi arzoqi insoniy vagon keldi.

Namangandin chiqarduk sart aroba mehnatin tortub,
O'turub besaranjom, yuk ila sirka qovoq ortub,
Urub otlarni qumlarda va yo ko'llarda ko'b hortub,
Arobakash ila xo'b mushtlashib, ko'b oh-voh tortub,
Ajib bir foyizi arzoqi insoniy vagon keldi.

Yurarga bo'ldi go'yo tasxir² bodi Sulaymoni,
Yeturgay muddaoga yetmayin bir lahza bir oni,
Ko'targay bir shahar arzoqini tahsinga yo'q joni,
Ko'b erur xonasi anvo'yini yo'qtur haddi soni,
Ajib bir foyizi arzoqi insoniy vagon keldi.

Edi katta xatar yo'lchilara bu shahar bahri,
Agar toshsa, bu daryo o'tub bo'lmas Xudo qahri,
Munga aylab temir ko'prik go'yo bir etib nahri,
Umumiy ko'b mashaqqat o'ldi oson hikmati dahri,
Ajib bir foyizi arzoqi insoniy vagon keldi.

¹ Nihod – tabiat, sifat, ta'b.

² Tasxir – qo'lga kiritish, amri ostiga olish.

O'qingiz, ilmi hikmat sizga, bu ish katta Ibratdur,
Agar ilm o'rganursiz barcha ishda sizga nusratdur.
Agar ilm o'lmasa, nodon umri barcha kulfatdur,
Bu ashyoyi jadidi mubaddini asli hikmatdur,
Ajib bir foyizi arzoqi insoniy vagon keldi.

MUSADDAS

QARZ

Ey hoziqo, jahonda bo'lurmu davoyi qarz?
Olam elin mariz qilur mojaroyi qarz,
Etmay qanoat o'ljadi hojat ravoyi qarz,
Dunyo kerakdur aylamakka birodori qarz,
Keldi bu xalq boshiga birdan baloyi qarz,
Bo'ldi tamom xalqi jahon mubtaloyi qarz.

Oldi-yu qarz paxta uchun, bergumuz muni,
Dedi: «Chiqar hayoni tarozuda bir kuni».
Sarf-xarojat ayladi, hech chiqmadi uni,
Paxta bo'lur bu yilda ado aylagum shuni,
Keldi bu xalq boshiga birdan baloyi qarz,
Bo'ldi tamom xalqi jahon mubtaloyi qarz.

Mundin qadim xalqda bor erdi iqtisod,
Kam erdi xalq ichra tu vahsh ila fasod,
Qilmay bu xalq ilmi hisob ila ijтиhod,
Iqboli yovar o'ljadi ham topmadi murod,
Keldi bu xalq boshiga birdan baloyi qarz,
Bo'ldi tamom xalqi jahon mubtaloyi qarz.

Hech kim qanoat aylamadi uyda boriga,
Bo'lmoq taraqqiy bo'ldi ishi bordi noriga,
Kiydi, yedi va qildi hasham ro'zg'origa,
Ketti tamom naqdi o'zining ro'zg'origa,
Keldi bularni boshiga birdan baloyi qarz,
Bo'ldi tamom xalqi jahon mubtaloyi qarz.

Farg'onada bu vaqtida beqarz kimsa yo'q,
Ming so'm aqalli qarz bo'lib, bo'lsa qorni to'q,
Sarf-xarojat aylab, o'zini ayladi uluq,
Bechoralarni qilgusi bordur chuluq-chujuq,
Keldi bularni boshiga birdan baloyi qarz,
Bo'ldi tamom shoh-u gado mubtaloyi qarz.

Ko'rganmukin qariyalar o'tgan zamonada,
Yoinki asri avval oxiri miyonada¹,
Yil-u oyi om² bo'ldi bu yil g'ussaxonada,
Ko'rmay ko'zi aylandi bo'lub dom-donada,
Keldi bularni boshiga birdan baloyi qarz,
Bo'ldi tamom xalqi jahon mubtaloyi qarz.

Lekin bu yilda Chust, Namangan taraflari
Qoldi qurub, yetishmadi suv, ko'b alaflari,
Birdan husul bo'lindi, ko'bdur talaflari,
Aytgan edi bu ma'nini ko'pdan salaflari,
Keldi bularni boshiga birdan baloyi qarz,
Bo'ldi tamom xalqi jahon mubtaloyi qarz.

¹ Miyona – o'rtta, o'rtacha, bel.

² Om – umum, omma, xalq.

Ko'blar berib ariza, kriditni ochtilar,
Pulni olib, xaloyiqqa paxtaga deb sochtilar,
Ko'b kambag' aldin unmadi, oxirida shoshtilar,
Ba'zilarni mast qilib aqchalar talashtilar,
Keldi bularni boshiga birdan baloyi qarz,
Bo'ldi tamom xalqi jahon mubtaloyi qarz.

Ba'zilari tamom tijoratni¹ bilmagan,
Gar bilsa ham, zarurini ko'zga ilmagan,
Qariyalar so'zig'a qanoatni qilmagan,
Ham oqibat na bo'lg'usi deb esga olmagan,
Keldi bularni boshiga birdan baloyi qarz,
Bo'ldi tamom shoh-u gado mubtaloyi qarz.

Bormi bu vaqt hech kishi qarz bo'lмаган?
Bordur hamada qarz agar bo'lsa unmagan,
Yo qarzi yo'q bo'lurki, onodan tug'ilmagan,
Yo faqir-fano ichra bu dunyoni olmagan,
Keldi bularni boshiga birdan baloyi qarz,
Bo'ldi tamom xalqi jahon mubtaloyi qarz.

Hech suhbatni bo'lurmiki, qarz so'zi emas,
Dunyo g'ami hamisha va aqibo g'ami emas,
Jonni g'ami va ham tirikligi hech demas,
Bormu kishiki bir-biriga qarz hasratin demas,
Keldi bularni boshiga birdan baloyi qarz,
Bo'ldi tamom xalqi jahon mubtaloyi qarz.

¹ Tijorat – savdo-sotiq.

Boylar g‘ami budurki, pulim bermadi hayon,
O‘tgan yili durust edi, bo‘ldi bu yil ziyon,
Teng o‘lmadi tan ila hayon deb bo‘lub fig‘on,
Darqahr o‘lub, kelishmadi deb torgovli jahon,
Keldi bularni boshiga birdan baloyi qarz,
Bo‘ldi tamom xalqi jahon mubtaloyi qarz.

Bersun najot jumlayi mo‘min qarziga,
Yetsun Xudoyim o‘zi bu abdini arziga,
Rahm aylasa Rahim bu ahvol tarziga,
Bersun xazina g‘aybdin ul banda qarziga,
Keldi hamani boshiga birdan baloyi qarz,
Bo‘ldi tamom shoh-u gado mubtaloyi qarz.

Tarix edi ming uch yuz o‘ttuz bira adil¹,
Anda edi havo va jahon barcha mo‘tadil,
Xalq oldi qarz, aqcha topilsa bo‘lub dalil²,
Vaqtি berarda bermadi, haq bo‘ldi muzmahil³,
Keldi hamani boshiga birdan baloyi qarz,
Bo‘ldi tamom xalqi jahon mubtaloyi qarz.

Ibrat, sanam bu qarzga ko‘bdan bo‘lub asir,
Asr ilkiga etmadi haq marhami bo‘lub yesir,
Shukur et bu ne’matiga, agar bermasa kasir,
Ahvoli hol anga ayondur, o‘zi xabir,
Keldi hamani boshiga birdan baloyi qarz,
Bo‘ldi tamom shoh-u gado mubtaloyi qarz.

¹ *Adil* – monand, o‘xshash, teng.

² *Dalil* – yo‘l boshlovchi; hujjat, asos.

³ *Muzmahil* – toptalgan.

jadid
adabiyoti
namoyandalari

IS'HOQXON IBRAT



ZABARJAD
MEDIA

ISBN 978-9943-7070-5-4

9 789943 707054



zabarjadmedia